



THE PHENOMENON OF “PAN-ISLAMISM” OR THE CONCEPT OF “ISLAMIC UNITY”

Dildora Yusupova

Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: yu.dildora@list.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: Islam, pan-Islamism, pan-Turkism, fundamentalism, extremism, nation.

Received: 31.03.25

Accepted: 02.04.25

Published: 04.04.25

Abstract: This article examines the history of pan-Islamism, which emerged in the Middle East in the late 19th century and became the ideology of groups operating under the guise of Islam in the 20th and 21st centuries. The article covers in detail the methodological foundations of the idea of pan-Islamism, its positive and negative aspects, its modern incarnation called "neo-pan-Islamism," as well as factors associated with the rise of Islamophobia.

“PANISLOMIZM” FENOMENI YOHUD “ISLOM BIRLIGI” KONSEPSIYASI

Dildora Yusupova

falsafa fanlari bo'yicha (PhD), dotsent

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Email: yu.dildora@list.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: islam, panislomizm, panturkizm, fundamentalizm, ekstremizm, millat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asrning oxirida O'rta Sharqda paydo bo'lgan va XX–XXI asrlarda islam niqobi ostida faoliyat yuritgan guruhlarning mafkurasiga aylangan panislomizmning tarixi haqida so'z boradi. Maqolada panislomizm g'oyasining metodologik asoslari, uning ijobiy va salbiy tomonlari, zamonaviy “neopanislomizm” nomi ostidagi qiyofasi hamda islomofobiyaning kuchayayotgani bilan bog'liq omillar keng yoritilgan.

ФЕНОМЕН “ПАНИСЛАМИЗМА” ИЛИ КОНЦЕПЦИЯ “ИСЛАМСКОГО ЕДИНСТВА”

Дилдора Юсупова

доктор философии (PhD), доцент

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, узбекистан

E-mail: yu.dildora@list.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	ислам, пантюркизм, фундаментализм, экстремизм, нация.	Аннотация: В данной статье
панисламизм,	рассматривается история панисламизма, зародившегося на Ближнем Востоке в конце XIX века и ставшего идеологией групп, действовавших под прикрытием ислама в XX-XXI веках. В статье подробно освещаются методологические основы идеи панисламизма, его положительные и отрицательные стороны, его современное воплощение под названием “неопанисламизм”, а также факторы, связанные с усилением исламофобии.	

Kirish. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida fundamentalizm va ekstremizmning kuchayishi fenomeni ko‘pchilik ilmiy soha olimlarini din nomidan tashkil topgan guruhlarning kelib chiqish sabablarini tadqiq qilishga, ularning tahdidlarini tahlil etishga va ularni bartaraf etish usullarini izlashga undadi. Ayniqsa, XX asr oxirlarida din nomidan harakat qiluvchi guruhlarning islomning yashil bayrog‘i ostida tashkillanishi, ularning radikal ideologiyalarini tezda keng ommaga tarqatish imkoniyatlarini namoyon qildi. Shuningdek, XX asr oxirida Markaziy Osiyoda islomga bo‘lgan qiziqish, unga ishonish va islomning radikallashuvi sezilarli darajada oshdi. Ushbu muammolarning asosiy sababi, asosan, panislomizm g‘oyasining taraqqiyotiga borib taqaladi. Shu bois, panislomizm mafkurasining tarixi, uning siyosiy maqsadlar yo‘lidagi ahamiyati va undan kelib chiquvchi oqibatlarni o‘rganish hamda jamiyatni yaxshilash va barqarorlashtirish yo‘llarini topish uchun dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuni yoritishda G.Wyman Bury, Jorj Korm, S.Qudratov, F.Gaibova, B.Asimova va G.Kurmangaliyeva kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari tarix falsafasi nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek, mavzuni yoritishda tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil, tizimlilik kabi metodlardan unumli foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. XX-asr oxirlariga kelib Markaziy Osiyo mamlakatlarida Islomga qiziqish, unga e’tiqod qilish faolligi va islomning radikallashuv holatlari keskin darajada oshishi kuzatildi. Shu bilan birga Yaqin Sharq mamlakatlarining zamonaviy rivojlanishida ziddiyatli muammolar murakkablashib bordi. Bu muammolarning ildizi esa, “panislomizm” g‘oyasiga borib

taqalar edi. Aynan, ushbu g‘oyaning kelib chiqish tarixi va bugungi kunda mafkuraviy qurolga aylanishi Yaqin Sharq mamlakatlaridagi beqarorlashuvlarda o‘z aksini topdi. “Bugungi kundagi panislomizm XIX asr va XX asr boshlaridagi panislomizmdan farq qiladi. O‘sha davrda u zamonaviy falsafadan ilhomlanib, musulmon mamlakatlarining diniy va siyosiy institutlarini chuqur isloh qilishga intilgan hamda terrorizmning hech qanday shaklini qo‘llab-quvvatlamagan edi” [1, – C. 35]. Shu bois, “panislomizm” mafkurasining tarixi, siyosiy maqsadlarga yo‘naltirilganligining sabab va oqibatlarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, Yaqin Sharq mamlakatlaridagi global muammolarning hal etilishida islom omilining ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, bugun islomga e'tiqod qiluvchi xalqlarning ongida “Islomiy birdamlik” mafkurasiga ergashish tamoyili ustunlik qila boshladi. Bunday g‘oya esa, “Panislomizm” tendensiyasi g‘oyasida mujassam edi.

“Panislomizm” so‘zining etimiologiyasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “Pan” so‘zi “birlik”, “birlashish” bo‘lib, “islom” so‘zining qo‘silishi bilan “islom birligi” degan ma’noni keltirib chiqaradi. Pan-Islom (nomidan ko‘rinib turibdiki) - millatidan qat’i nazar, butun dunyodagi musulmonlarni birlashtirish harakati [2, – P. 2].

“Panislomizm – XIX asrning oxirlarida O‘rta Sharqda vujudga kelgan, islom mamlakatlarini yagona bayroq ostida birlashtirish g‘oyasini ko‘tarib chiqqan siyosiy oqim” [3, – B. 126] bo‘lib, bu g‘oyaning asoschisi Afg‘oniston diniy va siyosiy arbobi, ma'rifatparvari Jamol ad-Din al-Afg‘oniy hisoblanadi. U G‘arbning tahdidiga qarshi islom birligi g‘oyasini ilgari surgan va barcha musulmonlarni mustamlakachilikka qarshi kurashda, birlashishga, ya’ni hududiy birlashishga chaqirgan [4, – C. 134]. 1884 yilda Parijda al-Afg‘oniy Muhammad Abdo bilan birgalikda “al-Urva al-vusqa” haftalik nashrini e’lon qilib, unda panislomizm g‘oyasini rivojlantirgan [5, – C. 26].

XIX-asrning ikkinchi yarmi va XX-asr boshlarida “Panislomizm” g‘oyasi ostida islom birligiga erishishni maqsad qilgan siyosiy harakatlar avj oldi. “Islom birligi g‘oyasiga asoslangan panislomizm musulmon ommasi tomonidan ham chet el hukmronligini rad etish shakli sifatida, shuningdek, bu hukmronlik sharoitida musulmon burjuaziyasining “omon qolishi”ga xizmat qilishga mo‘ljallangan va uning alohida guruhlari manfaatlarini himoya qilish uchun foydalilaniladigan siyosiy ta‘limot sifatida ham paydo bo‘ldi” [6, – C. 45]. Chunki, aynan musulmon xalqlarining birlashishi, bir tarafdan mustamlakadan ozod bo‘lish yo‘li bo‘lsa, ikkinchi tarafdan G‘arba qarshi kuch sifatida siyosiy pozisiya edi. Shu bois, “panislomizm” konsepsiysi musulmonlar uchun najotga eltuvchi mafkura bo‘lib ko‘rindi.

“Panislomizm – XIX asrning oxirlarida O‘rta Sharqda vujudga kelgan, islom mamlakatlarini yagona bayroq ostida birlashtirish g‘oyasini ko‘tarib chiqqan siyosiy oqim” [3, – B. 126]. bo‘lib, bu g‘oyaning asoschisi Afg‘oniston diniy va siyosiy arbobi, ma'rifatparvari Jamol ad-Din al-

Afg‘oniy hisoblanadi. U G‘arbning tahdidiga qarshi islom birligi g‘oyasini ilgari surgan va barcha musulmonlarni mustamlakachilikka qarshi kurashda, birlashishga, ya’ni hududiy birlashishga chaqirgan [4, – C. 134].

Kelib chiqishi saidlar oilasidan bo‘lgan Jamoliddin al-Afg‘oniy 1839 yil Afg‘onistonning Asadobod shahrida tug‘ilgan. Uning nasl-nasabi haqida so‘z borganda turli fikrlar mavjud bo‘lib, xususan, ba’zi tadqiqotchilar uni o‘zi tan olmasada eronlik shia deb ham ta’kidlaydilar. Umuman olganda Jamoliddin al-Afg‘oniy qaysi yo‘nalishdan bo‘lishiga qaramay u musulmonlarni yagona birlik g‘oyasi, ya’ni panislomizm mafkurasining asoschisi hisoblanadi.

“Panislomizm nazariyasi Sharq xalqlarining mustaqillikni saqlashga bo‘lgan intilishlarini ifoda etuvchi va o‘z davri uchun ma'lum ma'noda ilg‘or g‘oya edi. Al-Afg‘oniy uning zamirida millatlar birligini, chet el bosqinchilariga qarshi kurashda ahillik va birdamlikni ko‘rgan edi. Chunki u xalqlar toki millati, irqi, tili, qarashlaridan qati nazar, yovuzlik balosiga qarshi birlashmas ekanlar, ozodlikni qo‘lga kiritib bo‘lmaydi, degan qatiy fikrda bo‘lgan va bu g‘oyani “panislomizm” nazariyasiga singdirishga xarakat qilgan” [7, – B. 334].

“Al-Afg‘oniy islomning diniy, ijtimoiy-falsafiy tizimini mustamlakachilikka qarshi kurash vazifalari asosida qayta ko‘rib chiqish zarurligini Sharq ma'rifatparvarlari orasida birinchilar qatorida tushundi. U Sharq ham G‘arb bosib o‘tgan yo‘lni bosib o‘tadi, islom shiorlari esa musulmonlar dunyosida xristian tafakkurining turli oqimlari zimmasiga tushgani singari jipslashtiruvchi rolni o‘ynashi lozim, degan fikrga o‘z maslakdoshlarini ishontirishga harakat qildi” [8, – B. 15]. Shuningdek, u “Habla-l-matin” va “Chehranamo” gazetalarining mafkuraviy asoschilaridan biri hisoblanib, bu gazeta sahifalarida islomning insoniyat sivilizasiyasi tarixidagi rolini faol targ‘ib qilgan [9, – C. 3].

Abdul Hamid II panislomizm ta'limotidan o‘z siyosatida Usmoniy imperiyasini saqlab qolishda foydalangan bo‘lsa-da, biroq uning siyosati islom negizi asosiga qurilganligi bois, urg‘uni islomga qaratdi. Aynan, islomni saqlash orqali panislomizm mafkurasidan siyosiy chora va usul sifatida foydalandi. “Islom Renessansi” yoki “ Islom modernizmi”ning Turkiyadan tashqarida rivojlangan zamonaviy tendensiyalari panislomizm mafkurasini yanada rivojlanishiga imkoniyat yaratdi.

Panislomizm – musulmon xalqlarining mustamlakachilikka qarshi kurashda Turkiya imperiyasi tomonidan keng foydalilanigan targ‘ibot va tashviqot usuli bo‘ldi. Al-Afg‘oniyning ushbu ta'limoti Abdul Hamid II ning o‘z imperiyasini kengaytirish va uning obro‘sini saqlab qolishida qo‘l keldi. Al-Afg‘oniy ta'limotining asosiy qoidalari quyidagi talablarda o‘z ifodasini topgan edi:

- 1) musulmonlar yashaydigan barcha hududlar mustamlakachilik hukmronligidan ozod qilinishi kerak; musulmonlar Evropaning kengayishiga qarshi turish uchun birlashishlari kerak;

2) musulmon davlatlarida konstitusion monarxiya boshqaruv modeli bo‘lishi kerak [4, – C. 84].

Bu bilan Al-Afg‘oniy Usmoniy imperiyasining sultoniga strategik dasturni ko‘rsatish bilan birga, uning musulmon olamini bir xalifalik qo‘l ostida birlashtira olish kuchi borligiga ishonganligini bildirgan.

Darhaqiqat, Turkiya islom dunyosida markaziy kuch sifatida musulmonlar ideal jamiyatini yaratish konsepsiyasini ishlab chiqdi. Ana shu konsepsiya asosida G‘arbning ta’siri hamda tazyiqlariga javoban madaniy birlik tamoyilini o‘zida mujassam etgan panislomizm ta’limotidan foydalandi. XIX asrning taniqli panislomisti bo‘lgan Jamol ad-Din al-Afg‘oniyning ta’limoti musulmon dunyosining zamonaviy g‘oyasi sifatida musulmonlar orasida yangi siyosat turiga zamin yaratdi va islomiy ritorikaga [Ritorika – (qad.yunon. – notiq, ma’ruzachi) bu nutq san’ati, notiqlik va notiqlik qoidalarini o‘rganadigan filologik fan] sabab bo‘ldi. Avvaliga ushbu ta’limot ijobjiy ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, keyinchalik Rossiya va Angliya imperiyalarida separatizm g‘oyasini shakllantirishga urinish sifatida qaraldi va ular tomonidan ushbu ta’limot salbiy ta’limot sifatida baholandi. Sababi, panislomizm mafkurasi Abdul Hamid II ning siyosiy maqsadlari bilan kombinasiyalashib, Angliya va Rossiya imperiyalarini vahimaga soldi. Chunki, Rossiya va Angliya imperiyalarining mustamlakasi bo‘lgan davlatlarda an'anaviy musulmon davlatlari ham mavjud edi.

Bugungi kunga kelib esa, panislomizm ekstremistik ruhdagi guruhlarning shioriga aylanganligi bois, u yanada siyosiylashib bordi va salbiy tushunchani keltirib chiqardi. XIX asrning oxirida vujudga kelgan panislomizm mafkurasi XXI asrga kelib neopanislomizm ta’limotiga aylandi va yangi qiyofani kashf etishi natijasida ekstremistik ruhdagi guruhlarning asosiy mafkuraviy quroliga aylandi.

Panislomizm mafkurasini tojikistonlik tarixchi olma Azimova Bozorgul Tagaevna: “XIX asrning 90-yillari birinchi navbatda, Afg‘oniston, Eron, Hindiston va Turkiyada musulmonlarni siyosiy hayotga uyg‘otish, musulmonlarni siyosiy hayotga va mustamlakachilarga qarshi kurashda birlashtirishga qaratilgan taniqli musulmon islohotchisi S.J.Afg‘oniyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati edi” [10, – C. 11] – desa, qozog‘istonlik faylasuf olma Galiya Kurmangalieva Al-Afg‘oniyning qarashlarida “...Islomning milliy ruh bilan munosabati va o‘z-o‘zini anglash ideallari markaziy o‘rinni egallaydi” [11] – degan fikrni ilgari suradi. Darhaqiqat, Jamol ad-Din al-Afg‘oniy islom dunyosi musulmonlarini mustamlaka zulmidan ozod qilishga uringan. Keyinchalik bu ta’limot uning shogirdi Misrning muftisi bo‘lgan Muhammad Abdoning fatvolarida davom ettirilgan. Bu ikki shaxs panislomizm ta’limotini rivojlanishi va yoyilishida asosiy o‘rinni egallahsgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, “Panislomizm” mafkurasi islom birligi va musulmonlarni taraqqiyotga olib boruvchi konsepsiya sifatida vujudga kelgan bo‘lsa-da, lekin u turli manfaatlar yo‘lida qo‘llanilgan. Shuningdek, undan mustamlakaga qarshi kurash, islom birligi va siyosiy pozisiya nuqtai nazaridan, musulmon burjuaziyasining manfaatlari yo‘lida hamda G‘arbgaga qarshi pozisiya sifatida foydalanilgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, Abdul Hamid II ning panislomizm mafkurasiga asoslangan siyosatini milliy, siyosiy va iqtisodiy mayjudlik uchun kurash deb baholash mumkin.

Ikkinchidan, panislomizm – bu millatidan qat’iy nazar, dunyodagi barcha musulmonlarni birlashtirishga qaratilgan siyosiy harakat hisoblanadi.

Uchinchidan, hozirgi kunda panislomizm g‘oyasining g‘alabasi yoki unga erishishga intilish, butun musulmonlarni birlashtirishga da‘vat qilayotgan hamda xristianlar va boshqa din vakillariga nisbatan agressiyani (toqatsizlik) yorituvchi ideologiya sifatida qabul qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Жорж Корм. Религиозный вопрос в XXI веке. Геополитика и кризис постмодерна // Перевод с французского Дмитрий Кралечкин. – М.: Институт общегуманитарных исследований, 2012.
2. G.Wyman Bury. Pan-Islam. – London: Macmillan And Co., 1919.
3. Экстремизм ва терроризм – тараккиёт душмани. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015.
4. Ислам в странах Ближнего и Среднего Востока. Сборник статей. – М.: Наука, 1982.
5. Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991.
6. Ислам в современной политике стран Востока (конец 70-х — начало 80-х годов XX в.). – М.: Наука, 1986.– С. 45.
7. Қудратов С. Ал-Афғоний ва маслакдошларининг жамиятни ислоҳ қилишдаги кўшган хиссалари // Academic research in educational sciences. 2020. №1.
8. Ўзбекистоннинг янги тарихи, 2-китоб. [Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида], Тошкент: Шарқ, 2000.
9. Гаивова Ф.М. Публицистика Сайида Джамалиддина Афгани: диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Душанбе: 2015.
10. Азимова Б.Т. «Татиммат ал-Баян фи Тарих ил-Афган» Сейида Джамалуддина Афгани как исторический источник по истории центральной азии (XVIII-XIX вв.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Душанбе, 2010.
11. <https://e-history.kz/media/upload/54/2013/08/31/b50049941a40f00156617db786e08f-3f.pdf>